

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
BERUNIY TUMANI
HOKIMINING
F A R M O Y I S H I**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
BERUNIY RAYONI
HAKIMINING
BIYLIGI**

2021 - yil 16 - noyabr

59-13-182-F/21

Beruniy tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining 2021-yil 10-noyabr kungi
VI-36-46-13-182-K/21-sonli sessiya qaroriga asosan
mablag' ajratish to'g'risida**

1. Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining 2021-yil 10-noyabr kungi VI-36-46-13-182-K/21-sonli sessiya qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Tuman Moliya bo'limi (O.Mambetsaburov)ga:

Tuman Ichki ishlar bo'limida shtat birliklarini saqlash maqsadida 65 676 000 (oltmish besh million olti yuz yetmish olti ming) so'm;

Tumandagi Bo'ston mahalla fuqarolar yig'ini Yoshlik aholi manziliga ichimlik suvi tarmog'ini tortib aholiga yetkazib berish maqsadida 96 000 000 (to'qson olti million) so'm;

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga yonilg'i moylash materiallari (dizel yoqilg'isi) uchun 20 000 000 (yigirma million) so'm;

Beruniy tumani Irrigatsiya bo'limiga yonilg'i moylash va qurilish materiallari xarajatlari uchun 19 945 000 (o'n to'qqiz million to'qqiz yuz qirq besh ming) so'm va Beruniy tumanida Amudaryodan suv oluvchi nasos stansiyalariga suv keltiruvchi kanallarni 2021-2022 yillar kuzgi-qishgi davrida tozalash xarajatlari uchun 48 000 000 (qirq sakkiz million) so'm;

Tuman obodonlashtirish boshqarmasining elektr energiyasidan yuzaga kelgan qarzdorligini qoplash maqsadida 50 000 000 (ellik million) so'm mablag'larni ajratish topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Yangibaev), Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Karimov) va tuman irrigatsiya bo'limi (J.Yeshanov)ga ajratilgan pul mablag'larini belgilangan tartibda o'tkazib berish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Primov) zimmasiga yuklatilsin.

Beruniy tumani hokimi



A.Saparbayev